

**IJTIMOY FANLAR ORQALI YOSHLAPRNI
INSONPARVARLIK RUXIDA TARBIYALASH MASALALARI**

Burxanov Taxir Maxamatjonovich

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi dotsenti,

p.f.f.d.(PhD), dotsent

Yuldashev olim sheralievich

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi katta ofitseri

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoev ma'rzasasi "Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intelektual va ma'naviy salohiyatiga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz"¹ deya ta'kidlab o'tadilar.

Bugun yoshlarimiz, xususan, talabalarda insonparvarlikni ijtimoiy fanlardan o'tiladigan darslar jarayonida shakllantirishda quyidagi uslubiy talablarga ahamiyat berish maqsadlga muofiq. Bular: a) hozirgi davrning asosiy xususiyatlaridan biri bo'lgan globallashuv, informatsiyalashuv, mafkuraviy ziddiyatlarning keskinlashuvi va ularning mamlakatimiz hayotiga, xususan, yoshlarimiz ma'naviy dunyosiga ta'sirini hisobga olish; b)talabalarning ushbu jarayonlarga nisbatan munosabat darajasini aniqlash; v) dars jarayonida o'qituvchi tomonidan beriladigan nazariy bilimlar va amaliy darslarida muxokama qilinadigan savollar yechimining bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda tashkil qilish; g) talabalarning bilishga bo'lgan qiziqishini oshirish; d) ushbu jarayonda talabalarning ijodkorligi, tanqidiy fikrlashi, muhokamalar jarayonlarini o'zları

¹Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз.-Т."Ўзбекистон", 2016.-Б-14

tashkil qilishi kabilardan iborat. Insonparvarlikni masalan, falsafa fani mashg‘ulotlarida shakllantirish uning birinchi mavzusiga bag‘ishlangan ma’ruzada falsafanining dunyoqarash roli tarkibiga kiruvchi insonparvarlik funksiyasini talabalarning ongi va shuuriga singdirish jarayoni texnologiyasida ko‘rishimiz mumkin. Ma’lumki falsafanining bosh g‘oyasi bu insonparvarlik g‘oyasidir. Falsafanining istalgan mavzusini, muammosini inson, uning manfaati, uning hayot tarzini yaratish bilan bu jarayon insonning sog‘lom ma’naviy, ruhiy qudrati orqali amalga oshishi bilan boqliq ekanligi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, o‘tgan va hozirgi zamonda ham inson muammosi hamisha murakkab muammo bo‘lib kelgan va bu muammoni yechishga ko‘ra turli xildagi yondashuvlar va qarashlar shakllangan. Ushbu yondashuv va qarashlarni shakllantirishda falsafanining gumanistik funksiyasi muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Bunda o‘qituvchi asosan ikki yondashuv xaqida – falsafiy va diniy yo‘nalish haqida to‘xtalishligi ular o‘rtasidagi umumiylilik va farqni ko‘rsatishi muhim ahamiyatga ega. Albatta hayot har ikkala yo‘nalishda ham eng ulug‘ qadriyat hisoblanadi. Xususan, falsafada insonning hayoti, o‘limi va abadiyligi Suqrotdan boshlab to bugungi kunga qadar o‘z falsafasini yaratgan faylasuflarning qarashlarida markaziy o‘rinni egallaydi.O‘qituvchi hayot va uning ma’nosini tushuntirayotganda Navoiy g‘oyalari olamiga, uning gumanizmiga alohida to‘xtalsa yaxshi bo‘lgan bo‘lar edi. Bunda u Navoiyning “Menga qilsa bir jafo, bir marta faryod aylabon, xalqqa qilsa bir jafo yuz marta faryod aylaram” degan juftligini talabalar ishtirokida muxokama qilishi falsafanining gumanistik funksiyasi mazmunini ochib berilishiga yordam bergen bo‘lar edi. Buni innovatsion texnologiyalarning baxslashuv usuli bo‘yicha amalga oshirish yaxshi samara beradi. Bu usul talabalarning o‘quv guruhlarida o‘zlarining o‘zaro munosabatalrini yanada yazshilash, bir birlari bilan yaxshi munosabatda bo‘lishlari uchun yordam beradi. Baxslar talabalarni o‘z fikrlarini charxlab olishga, hayotga va turli muammolarga bo‘lgan munosabatlarni aniqlab olishga katta yordam beradi. Baxs mavzusi hisoblangan Navoiyning “Menga qilsa bir jafo, bir marta faryod aylabon, xplqqa qilsa bir jafo yuz marta faryod aylaram” matini bo‘yicha o‘qituvchi tomonidan baxs davomida muhokama qqilinadigan savollar belgilab qo‘yiladi.

Baxsni o'tkazish uchun o'qituvchi talabalardan boshlovchini tayinlashi ham mumkin. Bundan tashqari doskani yoki vatman qog'ozni ikki yoki uch qismga bo'lib, ikki yoki uch kishini berilgan javoblarini yozib boruvchi qilib tayinlab qo'yadi. Baxs qatnashchilari baxsni o'tkazish va unda o'zlarini tuta bilish, boshqara olish to'g'risidagi qoidalar bilan oldindan yoki baxs mobaynida tanishtiriladi. Talabalar baxslashishdan avval nima demoqchi bshlganini yaxshilab o'ylab olishi, gapirayotganda fikrlarini aniq, sodda mantiqiy ketma-ketlik bilan bayon qilishi, faqat ishonchi komil bo'lgan fikrlarni bayon etishga harakat qilishi, o'zi ishonmagan fikrlar bilan baxslashmasligi, kimningdir fikriga qo'shilmasa, uning fikrini masxaralamay, uning ustidan kulmay, xatosini aytmay xaqgo'ylik bilan baxslashishi, aytilgan fikrlarni ikkinchi bor qaytarmasdan, yangi fikr bo'lsagina o'sha fikrni bayon etishi, baxslashuv vaqtida qo'llarni har tomongga o'ynatmasdan, ovozni balandlatmasdan, baqirmasdan gapirish kerak. Agar u boshqalarni o'z fikriga ishontirmoqchi bo'lsa, ularni o'zining fikriga qo'shiltirishni istasa, unda u o'z fikrining isbotiga albatta aniq dalillar, misollar keltirish lozim. Falsafa gumanistik funksiyasini yoritishda milliy falsafamiz va jahon falsafasining yutuqlariga, hamda milliy madaniy tariximizga suyanishimiz, bu Sh.M.Mirziyoevning 2017 yil 30 iyunida "Kamolot" yoshlar ijtimoiy xarakatining to'rtinchi qurultoyida so'zlagan "Jismoniy va ma'naviy barkamol yoshlar-bugungi va ertangi kunimizni hal qiluvchi kuchidir" nomli nutqidan keng foydalanish muhim ahamiyatga egadir. Bahsni o'qituvchi talabalar tomonidan bildirigan fikrlarni klasslashtirish asosida jamlash va har bir klassning asosini tashkil qilgan fikrni bergen talab va ushbu fikrni quvvatlab davom ettirgan talabalarni ketma-ketlikka ko'ra baholash kerak bo'ladi.